

TERGOV EKSPERIMENTI TUSHUNCHASI VA VAZIFASI

Baratov Azim Shamsiyevich

*Toshkent davlat yuridik universiteti Kriminalistika va sud ekspertizasi
kafedrası mudiri
baratovazim.75@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tergov eksperimentini o'tkazishni o'ziga xos xususiyatlari, tamoiylari, usullari va amalga oshirish tartibi, amalga oshiruvchi subyektlar, tergov eksperimentini o'tkazishda o'zaro hamkorlik masalalari bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *tergov eksperimentini, usullar, kuzatish metodi, versiya, dalillar, tergov-tezkor choralari.*

Аннотация. *В данной статье излагаются особенности, принципы, методы и порядок проведения следственного эксперимента, субъекты его проведения, вопросы взаимодействия при проведении следственного эксперимента.*

Ключевые слова: *следственный эксперимент, методы, метод наблюдения, версия, доказательства, оперативно-следственные мероприятия.*

Annotation. *This article describes the features, principles, methods and procedure for conducting an investigative experiment, the subjects of its conduct, and issues of interaction during an investigative experiment.*

Key words: *investigative experiment, methods, method of observation, version, evidence, operational investigative measures.*

Jinoyatlarni tergov qilish paytida ko'pincha ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan hollarni tajriba yo'li bilan tekshirishga zaruriyat tug'iladi.

Tergov eksperimenti mustaqil tergov-protsessual harakati sifatida Kriminalistika fanining taktika tizimida ma'lum o'rinni egallaydi. Jinoyat ishini tergov qilish jarayonida sodir bo'lgan xodisaning ayrim holatlarini va vaziyatlarini tajriba usulida tekshirish bilan shug'ullanadi.

O'zR JPKning 153-moddasiga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi va sud guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilarning ko'rsatuvlarini, boshqa dalillarni, shuningdek ish yuzasidan qilingan tasmol, tekshirilayotgan hodisaga oid muayyan harakatlar, sharoit va holatlarni tiklash hamda zaruriy tajribalar o'tkazish orqali tekshirishga haqlidir [1].

Tergov eksperimenti, ya'ni tajriba o'tkazib ishning turli holatlarini, muqaddam bo'lib o'tgan xodisalarni, voqealarni va jinoyat ishiga aloqador bo'lgan hollarni voqe'likda haqiqatdan bo'lganini yoki bo'lmaganini aniqlash maqsadida

o'tkaziladi. Eksperimentning tarkibiy qismi sifatida muqaddam bo'lib o'tgan hodisalarni voqe'likda, aynan ma'lum sharoitlarda bo'lib o'tganligi tekshiriladi. Shuning uchun tajriba harakatlarini o'tkazishdan avval o'sha xodisa voqea bo'lgan sharoitni tiklab, ya'ni modelini yaratib, tergov eksperimentini o'tkazish lozim bo'ladi.

Eksperimentni tashkil qilish va o'tkazish zarurati biror xodisani idrok qilish, eshitish, muayyan harakatlarni bajarish, biror xodisalarning sodir bo'lish sababini tekshirish va xodisaning kelib chiqishi va izlarning xosil bo'lish sabablarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Shu bilan birga eksperiment harakatlari qonun normasi chegarasida amalga oshirilmog'i lozim.

Bunday holatda tergovchi o'zi tergov qilayotgan jinoy voqeaning ayrim detallarini sun'iy tiklash, ya'ni tergov eksperimenti o'tkazish yo'li bilan yoki bevosita kuzatish orqali voqeaning kelib chiqish mexanizmini o'rganadi. Tergov eksperimenti aslida lotincha "experimentum" – so'zidan olingan bo'lib, tergovchi tomonidan bajariladigan tajriba demakdir.

Ma'lumki, tergovchi o'zi tomonidan tergov harakatlari o'tkazilayotgan voqeaning asosiy guvohi bo'lmaydi. Sodir qilingan jinoyatning xarakteri va ayblanuvchilar ko'rsatmasiga binoan, hamda ishdagi mavjud bo'lgan daliliy ashyolar va boshqa dalillarga asosan muhokama qiladi. Shu bilan birga tergovchining to'plangan dalillarni to'g'ri baholash va tergov olib borilayotgan jinoyatning sodir qilish holatlari xaqidagi masalalarni tekshirishda o'sha harakatlarni bevosita kuzatish zarurati ham paydo bo'lib qoladi. Lekin jinoyat va u bilan bog'liq bo'lgan voqeani bevosita qabul qilish uchun imkoniyat bo'lmaydi, chunki bu voqea sodir bo'lib tugallangan bo'ladi.

Bu vaqtda tergovchi eksperiment, ya'ni tajriba yo'li bilan tergovni qiziqtiradigan holatni qayta tiklash va uni o'rganish bilan haqiqatda sodir bo'lish yoki bo'lmasligini tekshiradi.

Tergov eksperimenti jinoyatlarni tergov qilish amaliyotida ishda to'plangan dalillarni tekshirish va yangi dalillar topish vositasi sifatida dastlabki tergov, surishtiruv va sud organlari tomonidan keng qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi JPKning 153-moddasida belgilanishicha: tergov eksperimenti tajriba harakatlarini o'tkazishdan iborat bo'lib surishtiruvchi, tergovchi va sud guvohlar, jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilarning ko'rsatuvlarini, boshqa dalillarni, shuningdek ish yuzasidan qilingan tasmol, tekshirilayotgan hodisaga oid muayyan harakatlar, sharoit va holatlar voqelikda haqiqatdan bo'lganini yoki bo'lmaganligini aniqlash maqsadida ularni tiklash hamda zaruriy tajribalar o'tkazish orqali tekshirishga xaqlidir.

Tekshirilayotgan holatlar, guvohlar, jabrlanuvchilar, jinoyatda gumon qilinayotgan va ayblanuvchilarning ko'rsatuvlaridagi biron hodisani idrok qilish, eshitish, ayrim harakatlarni bajarish imkoniyati bo'lgan-bo'lmaganligini aniqlashdan iborat.

Bundan ko'rinib turibdiki, tergov eksperimentining mohiyati shundaki, muqaddam bo'lib o'tgan hodisalarni, jinoyat ishiga aloqador bo'lgan holatlarni voqealikda haqiqatdan bo'lganligini yoki bo'lmaganligini aniqlash maqsadida, ular aynan ma'lum sharoitlarda tiklanib tekshiriladi.

Ko'pgina protsessualist olimlar orasida tergov eksperimenti mustaqil tergov harakati emas degan fikrlar mavjud. Ularning fikricha, tergov eksperimenti, ko'zdan kechirishning bir turi, ko'rinishidan iborat deb hisoblaydilar. Masalan, ayrim olimlar, tergov eksperimentining tabiatini haqida "tergov eksperimenti ko'zdan kechirishning muhim turidan boshqa hech nimani ifoda etmaydi" degan fikrni bildiradi. Biz bu fikrga qo'shila olmaymiz, tergov eksperimenti ko'zdan kechirish tergov harakati bilan o'xshashlik tomonlari bor, lekin ular o'rtasidagi farqlarni quyidagicha izohlaymiz. Ko'zdan kechirishning asosiy vazifasi ko'zdan kechirish obyektlarini o'rganish, jinoyat hodisasiga aloqador bo'lgan jiddiy obyektiv belgilarni aniqlash va qayd etishdan iborat. Ko'zdan kechirish paytida dalillarning faqat real manbalari o'rganiladi, tergov eksperimenti paytida esa bu real ham ideal manbalar (guvoh, jabrlanuvchi, ayblanuvchining ko'rsatuvlari) bo'lishi mumkin. Ko'zdan kechirish paytida tergovchi ko'zdan kechirish vaqtida kuzatilgan va topilgan barcha narsalarni shu ko'rinishda o'rganishga va qayd etishga majbur, tergov eksperimenti o'tkazish paytida tergov topilganlarni kuzatish va qayd etish bilan chegaralanib qolmaydi, aksincha o'rganilayotgan hodisaning muayyan sharoitini qayta tiklaydi, shu bilan birga ma'lum holat, hodisa ma'lum sharoitlarda bo'lgan yoki bo'lmaganligini aniqlash maqsadida tajriba o'tkazadi.

Tergov eksperimenti jinoyat ishi yuzasidan mavjud bo'lgan ma'lumotlar va ehtimolga qarshi bo'lmagan fikrlarni tekshirishga qaratilgan bo'lib, ushbu ma'lumotlar va fikrlar ma'lum sharoitlarda voqelikdagi bo'lganligiga ishonch hosil qilishga qaratilgan bo'ladi.

Agar so'roq paytida tergovchi faqat so'roq qilinayotgan shaxsni eshitadi va so'roq qilinayotgan shaxsning hikoyasidan go'yoki haqiqiy ma'lumotlar oladi, tintuv, ko'zdan kechirish, guvohlantirishda esa hzi ish uchun ahamiyatli bo'lgan qandaydir predmetlarni, izlarni tergov qilinayotgan hodisa holatlarini kuzatib boradi, tergov eksperimentida esa haqiqiy ma'lumotlar u yoki bu harakatlar sodir etilishi imkoniyati bor-yo'qligini bevosita kuzatish, so'roq qilinuvchi shaxs bergan ko'rsatuvlar bo'yicha o'sha oqibatlar kelib chiqishi imkoniyati bo'lgan-bo'lmaganligini ko'rib chiqadi.

Eksperiment mazmuni bo'lib doimo tajriba harakatlari hisoblanadi. Tergov eksperimenti hal qilishi lozim bo'lgan aniq vazifalar tajribalar xarakterini belgilaydilar.

Shunday qilib, tergov eksperimenti - bu ishdagi to'plangan dalillarni tekshirish, yangi dalillar topish, ish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan ayrim harakatlar bajarilishining imkoniyati bo'lgan-bo'lmaganligi haqidagi tergov versiyalarini tekshirish va baxolash maqsadida alohida tajriba o'tkazishdan iborat tergov harakatidir.

Tergov eksperimentining asosiy vazifasi boshqa tergov harakatlaridan farqliroq yig'ilgan dalil ma'lumotlarni, ayrim ish holat, vaziyatlarini qayta tiklash bilan tekshirishdan iborat. Ba'zi hollarda eksperiment natijasida yangi holatlar ma'lum bo'lib qolishi va yangi dalillarni vujudga kelishi ham mumkin.

Tergov eksperimentining boshqa tergov harakatlari tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini bilish uchun uning maqsadi haqida tushunchaga ega bo'lishlik lozim.

Tergov eksperimentini o'tkazish maqsadi-vazifasi jinoyat ishining tergov jarayonida to'plangan ma'lumotlar (so'roq va boshqa tergov-tezkor choralari), jinoyat ishining ayrim holatlari yuzasidan hosil bo'lgan versiya va boshqa holatlar haqiqat ekanligini tekshirishdan iboratdir.

Tergov eksperimentining maqsadi quyidagilardan iborat:

- a) ish bo'yicha hosil bo'lgan ma'lumotlarni haqiqiylikini tekshirish;
- b) tergov jarayonida shakllangan versiyalarini tekshirish va baholash;
- v) jinoyat sodir qilishga imkoniyat tug'dirgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash;
- g) yangi holat va dalillarni aniqlash.

Bu tergov harakatining vazifasiga jinoyatni ochish isbotlash uchun yangi dalillarni topish, mustahkamlash va ularni to'g'ri baholab, ayblov fikriga asos qilish masalasi ham kiradi.

Tergov versiyalarini aniqlash va baholash tergov eksperimentining muhim maqsadidan biridir.

Ayrim olimlar tergov eksperimenti dalillarni tekshirish maqsadida o'tkazilishini ko'rsatadi, lekin dalillarni faqat eksperiment yo'li bilan emas, balki so'roq tintuv, yuzlashtirish va boshqa tergov harakatlari bilan ham tekshirish mumkin. Xamma vaqt ham dalillarni tekshirish versiyalarni tekshirishga to'g'ri kelavermaydi, chunki dalillar bilan versiyalarni bir-biri bilan teng qo'yib bo'lmaydi. Versiyalar ma'lum belgi-alomatlar asosida kelib chiqadi va ularni tekshirgandan so'ng dalil holatiga aylanadi. Versiyalar dalillarga nisbatan mazmunan kengroq bo'lishi mumkin, lekin hali tekshirilmasdan turib u tergov jarayonida haqiqat bo'la olmaydi. Tergov ishini yurgizish jarayonida hosil bo'lgan versiyalarni albatta turli tergov harakati yordamida, shu jumladan eksperiment o'tkazish bilan tekshirilgandan so'ng dalil maqomiga ega bo'ladi.

Versiyalar jinoyat hodisasining umumiy yoki ayrim holatlariga taaluqli bo'lib, qanchalik qat'iy bo'lmasin ular eksperimenti, ya'ni tajribalar va boshqa tergov harakatlari yordamida tekshirilgan holdagina haqiqatga aylanib ishning ayrim holatlariga tegishli bo'lgan dalil sifatida xizmat qiladi. Bu holda tergov eksperimentining natijalari yangi dalillarni keltirib chiqarishi va borlarini haqiqatga mos yoki mos emasligini tasdiqlaydi.

Shuningdek eksperiment faqagina bor dalillar va versiyalarni tekshirish bilan cheklanmay, eksperiment tajribalari yordamida yangi holatlar ham ochilishi mumkin.

Shunday qilib, hamma tergov eksperimentining maqsadi versiyalarni tekshirish, chunki versiya uning mantiqiy asosini tashkil qiladi va u versiyaning to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlash uchun amalga oshiriladi. Versiyalarni tekshirishda eksperimentning mustaqil bir maqsadi tergovchi tomonidan yig'ilgan dalillarni tekshiribgina qolmay, shu dalillarni tekshirish asosida kelib chiqqan tergovchining taxminlarini ham tekshirishdir.

Eksperiment jarayonida amalga oshirilgan tekshiruvlar natijasi voqelikka nisbatan to'g'ri kelmasdan zid bo'lsa, ya'ni tekshirilayotgan harakatning natijasi ko'rsatuvdagi holatlarni tasdiqlamasa, natija salbiy, inkor etuvchi bo'lib, ko'rsatuvdagi ma'lumot noto'g'ri bo'lib chiqadi[2].

Surishtiruvchi yoki tergovchi tergov qilayotganida, ayblanuvchi va uning sheriklarini so'roq qilayotganida tergov ishining faqatgina faktik tomoni to'g'risida ma'lumot olish bilan cheklanmasdan, shu jinoyat sodir qilishga nima majbur qilganligini, fandan shart-sharoitlar jinoyat sodir qilishga imkoniyat yaratganligini yoki yordam berganligini aniqlashlari kerak. Tergov eksperimentini ham ana shu holat sabablarini tekshirishga qaratilmog'i lozim.

Buni quyidagi misolda ko'ramiz:

Televizor o'g'irligi ishi bo'yicha ayblanuvchi so'roqda shunday ko'rsatma beradi: "Zavoddan chiqib kelayotgan mashinalarni har doim qorovul ustki tomonlarini tekshiradi, shuning uchun men VAZ markali avtomashinamni kapotini tagiga ikkita "gorizont" televizorini joylashtirib olib chiqib ketganman, darvozaning tagida turgan qorovul kapotni tagiga qaramagan edi". Tergovchi uning ko'rsatmasini tajriba yo'li bilan tekshirib ko'radi, eksperiment o'tkazilayotganda ayblanuvchi televizorlarni qanday qilib kapot tagiga joylashtirganini ko'rsatadi va bunday qilish mumkinligini isbotlaydi. O'tkazilgan eksperiment natijasi zavod qorovulining ehtiyotsizligi, o'z ishiga sovuqqonlik bilan qarashi o'g'irlik sodir qilish uchun yaxshigina sharoit tug'dirganligini ko'rsatadi. Bu qorovulga nisbatan ma'muriy tartibda chora ko'rilib, bundan keyin bunday jinoyatlarni sodir qilishni oldi olinadi.

Shuningdek eksperiment faqatgina bor dalillar va versiyalarni tekshirish bilan cheklanmay, eksperiment tajribalari yordamida yangi dalillar ham aniqlanadi.

Tergov eksperimenti o'tkazish yo'li bilan yangi dalillar olish mumkinligi to'g'risida quyidagi misolni keltirishimiz mumkin:

Toshkent shaxridagi xonadonlardan birida o'g'irlik sodir etilgan. Uni sodir qilishda S. gumonlangan va uni tekshirib ko'rilganda cho'ntagidan bir dasta kalit moslamalari chiqqan. Bu kalitlarni ko'rib tergovchida o'g'irlik "shu kalitlar yordamida sodir qilingan" degan taxmin paydo bo'ladi. S.dan topilgan kalitlar o'g'irlik sodir bo'lgan xonadonning eshiklari qulfiga to'g'ri keladimi-yo'qmi tekshirish uchun tergovchi eksperiment o'tkazadi. Eksperimentning natijasida haqiqatdan kalitlarning biri eshik qulfiga to'g'ri kelgan, shu bilan birga bir kalit o'g'irlik bo'lgan xonadon boshqasi bo'lgan xonaning eshik qulfini ochadi.

Shubxalanuvchi S. o'z aybini bo'yniga oladi va haqiqatdan shu kalitdan foydalanib yuqorida ko'rsatilgan xonalarning eshiklarini ochib ko'rganligini aytadi. O'tkazilgan eksperimentning natijasida tergov qilinayotgan ish yuzasidan jinoyat quroli aniqlandi va qo'shimcha ravishda tayyorlanayotgan o'g'irlik uchun qurol (kalit moslamasi)ni tayyorlab qo'yganligi ma'lum bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tergov eksperimentini jinoyatlarni tergov qilish va aybdor shaxslarning aybini fosh etishda, tergovchining tahminlarini tekshirish va yangi dalillar topishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bazarova D.B. Kriminalistik, darslik T.:2015-yil 213 bet.
2. Norboyev A. Kriminalistik, darslik T.:2003-yil 261 bet.